


NABIJON QODIROV

CHOLG'U IJROCHILIGI

(G'IJJAK)

I



M⁴³

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI

NABIJON QODIROV

CHOLG'U IJROCHILIGI

(G'IJJAK)

60112400-Professional ta'lim: 60211500-Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular)
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun darslik



«NUR-STAR SHINES» NASHRIYOTI

TOSHKENT-2024

M 43
Q-53

UO‘K 780.634(075.8)

КБК 85.315.3ya73

Q 53

Qodirov, N. Cholg‘u ijrochiligi (g‘ijjak) [Matn] : darslik / N.Qodirov; muharrir A. Ismoilov; tuzuvchi N. Qodirov. – Toshkent: Nur-star shines, 2024. – 132 b.

Mazkur darslik 60112400- Professional ta‘lim: 60211500-Cholg‘u ijrochiligi (an‘anaviy cholg‘ular) ta‘lim yo‘nalishi, g‘ijjak cholg‘u ijrochiligi ixtisosligi bo‘yicha bakalavriyat bosqichining 1-kursi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda o‘zbek milliy maqom cholg‘u ijrochiligi masalalari g‘ijjak cholg‘usi misolida yoritilgan. Shuningdek, mazkur darslikdan musiqa sohasidagi oliy ta‘lim muassasalarida cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan barcha talabalar foydalanishlari mumkin.

Данный учебник предназначен для бакалавров 1 курса 60112400-Профессионального образования: 60211500-Инструментальное исполнительство (традиционные инструменты) по специальности инструментальное исполнительство гиджак, в котором на примере инструмента гиджак освещены примеры узбекского национального макомного исполнительства. Также данный учебник предназначен для практикующие студентам, изучающие музыкальные инструменты в высших учебных заведениях в области музыки.

This textbook 60112400-Professional education: 60211500-Instrument performance (traditional instruments) is intended for the 1st year of the bachelor's degree in the specialty of gijjak instrument performance, in which examples of Uzbek national Maqom musical performance are covered using the example of the gijjak instrument. Also, this textbook can be used by all students studying musical instruments in higher education institutions in the field of music.

Mas‘ul muharrir: Abduhoshim Ismoilov - O‘zbekiston xalq artisti, Yu.Rajabiy nomidagi Maqom ansambli badiiy rahbari.

Taqrizchilar: Komiljon Mirzayev - O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professori v.b, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist.

Salohiddin Azizboyev - Yu.Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti professori.

O‘tkir Qodirov - Yu.Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti dotsenti v.b.

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “06 Noyabr”dagi 491-sonli buyrug‘i asosida nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-9052-8-5

© “Nur-Star Shines” nashriyoti, 2024

© Nabijon Qodirov, 2024

MUNDARIJA

KIRISH	
I-MODUL. IJRO DASTURINI O‘ZLASHTIRISHNING UZVIYLIGI	
1-mavzu: 1-dars: Talabalarning ijrochilik bo‘yicha ko‘nikmalarini tekshirish. Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash	7
2-mavzu: 2-7-darslar: Shashmaqomning Mushkilot bo‘limi tarkibidagi Tasnif, Tarje’ va Gardunlardan o‘rganish	14
3-mavzu: 8-17-darslar: Nasr bo‘limi ikkinchi guruh sho‘balarining Savt yoki Mo‘g‘ulchalaridan (tarkibiy qismlari bilan) o‘rganish	33
4-mavzu: 18-23-darslar: Farg‘ona-Toshkent yoki Xorazm maqomlari tarkibidagi murakkablik darajasi yengil bo‘lgan asarlar yoki o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlaridan o‘rganish	66
5-mavzu: 24-29-darslar: Bastakorlar ijodiyoti yoki sharq xalqlari musiqalaridan namunalar o‘rganish	97
6-mavzu: 30-dars: O‘rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash	109
Mustaqil ta’lim uchun savol va topshiriqlar	112
G L O S S A R I Y	115

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	
I МОДУЛЬ. НЕПРЕРЫВНОСТЬ УСВОЕНИЯ ПРОГРАММЫ ИСПОЛНЕНИЯ	
Тема №1: 1-урок: Проверка навыков исполнительского мастерства студентов. Ознакомление и выбор программы исполнения	7
Тема №2: 2-7- уроки: Изучение Таснифа, Таржеъ и Гардуна в Мушкилот Шашмакома.	14
Тема №3: 8-17- уроки: Изучение «Савте» или «Мугулча» (с составными частями) секторов второй группы прозаического раздела	33
Тема №4: 18-23-уроки: Изучение по произведениям легкого уровня сложности или узбекским народным напевам и песням в составе Ферганско-Ташкентских или Хорезмских макомов.	66
Тема №5: 24-29-уроки: Изучение примеров произведений композиторов или восточной музыки.	97
Тема №6: 30-урок: Подготовка изучаемой музыки к исполнению на сцене.	109
Вопросы и задания для самостоятельного образования	112
ГЛОССАРИЙ	115

CONTENTS

INTRODUCTION	
I-MODULE. CONTINUITY OF LEARNING EXECUTIVE PROGRAM	
1- theme: 1- lesson: Examination of students' performance skills. Familiarity with and selection of executive programs	7
2- theme: 2-7- lessons: Learning from Tasnif, Tarje' and Gardun in the Mushkilot section of Shashmaqom	14
3- theme: 8-17- lessons: Learning from "Savt" or "Mo'g'ulcha" (with components) of the branches of the second group of the	33
4- theme: 18-23- lessons: Learning from works with a light level of complexity or Uzbek folk tunes and songs in the composition of Ferghana-Tashkent or Khorezm maqams	66
5- theme: 24-29- lessons: Studying examples of the works of composers or Eastern music	97
6- theme: 30-lesson: Preparation of studied music for performance on stage	109
Questions and tasks for independent education	112
G L O S S A R I Y	115

KIRISH

O'zbek maqomi san'ati Sharq maqomotining uzviy va muhim qismidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida milliy tushunchasiga urg'u berilgan. Bunda Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqomlarini chuqur o'zlashtirish nazarda tutiladi.

2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-sonli Farmonga asosan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutini tashkil etilishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mamlakatimizda an'anaviy o'zbek xalq kasbiy musiqa ijrochiligini yanada rivojlantirish, yosh sozanda va xonandalarni tayyorlashda ajdodlarimizdan meros bo'lib kelgan milliy ijrochilik an'alariga tayanish va uni bardavomligini ta'minlash kabi masalalarda har qachongidan ko'ra ko'proq mas'uliyat bilan yondashishimizni talab etadi.

2020-2021 o'quv yilidan O'zbekiston davlat konservatoriyasining An'anaviy xonandalik, An'anaviy cholg'ular, Kasbiy (Professional) ta'lim: Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik), Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular), Musiqashunoslik (Musiqiy sharqshunoslik) hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Baxshichilik ta'lim yo'nalishlari Yu.Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tarkibida faoliyat boshladi. Bu maqomot tarixida muhim hodisa va yangi bosqichdir. Shu sababli maqom ijrochiligining nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish, institut ta'limi jarayonida ularni chuqur o'zlashtirish, yangi o'quv adabiyotlarini yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

Maqom cholg'u ijrochiligi o'zbek milliy maqom san'atining bugungi kun talablari asosida rivojlantirishning muhim asoslaridan biridir. Shu sababli 60112400-Professional ta'lim: 60211500-Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) ta'lim yo'nalishi g'ijjak cholg'u ijrochiligi ixtisosligi asosida yaratilgan va musiqa sohasidagi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi talabalariga mo'ljallangan mazkur darslikda maqom cholg'u ijrochiligining nazariy va amaliy

masalalari baholi qudrat yoritib berishga harakat qilindi. Darslikdan ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseylari hamda san'at kollejlarning milliy maqom ijrochiligi bo'yicha mashg'ulotlarida ham foydalanish mumkin.

Darslikda maqom cholg'u ijrochiligi masalalari g'ijjak cholg'u ijrochiligi misolida yoritildi. Ma'lumki g'ijjak cholg'usi qadimiy cholg'ulardan hamda maqom cholg'u ijrochiligida tanbur cholg'usidan keyin muhim o'rin tutadi. G'ijjak cholg'usi maqom kuylariga xos bo'lgan qochirimlar, bezaklar va nolalarni to'liq ifodalab berish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, o'zbek maqom ijrochiligida XIV asrdan boshlab qo'llanilib kelinayotgan cholg'ulardan biri g'ijjakdir. Shuningdek, milliy musiqa ijrochiligi ta'limi jarayoni (1972-yil) boshlanganidan buyon ushbu cholg'u ijrochiligi bo'yicha juda ko'p yetuk mutaxassislar yetishib chiqdi va bugungi kunda ham g'ijjak cholg'usining milliy ijrochiligi yo'nalishi bo'yicha ko'plab o'quvchi va talabalar tahsil olishmoqda.

Darslik davlat ta'lim standartlarining malaka talablari asosida Yu.Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tomonidan tasdiqlangan 60112400-Professional ta'lim: 60211500-"Cholg'u ijrochiligi" (an'anaviy cholg'ular) fanining namunaviy dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan mazkur fanning ishchi o'quv dasturi asosida tuzildi. Har bir yakka tarzdagi dars mashg'ulotlarida nazariy ma'lumotlarni musiqa ta'limining negizi bo'lgan amaliy ijrochilik mashg'ulotlari orqali o'zlashtirish nazarda tutilgan. Shuningdek, g'ijjak cholg'u ijrochiligining yutuqlari va muallifning individual tajribasi umumlashtirildi. Darslikda berilgan mavzular fan dasturiga muvofiq o'quv yilining ikkinchi yarim yilligida ham ijro dasturlari o'zgartirilgan holda takrorlanadi.

Darslikka oid fikr-mulohazalaringiz va takliflaringizni Yu.Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Vokal va cholg'u ijrochiligi pedagoglari tayyorlash" kafedrasida kutib qolamiz.

I- MODUL. IJRO DASTURINI O‘ZLASHTIRISHNING UZVIYLIGI

1-mavzu: 1-dars: Talabalarning ijrochilik bo‘yicha ko‘nikmalarini tekshirish.

Ijro dasturlari bilan tanishish va tanlash.

G‘ijjak cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilingan talaba bilan amaliy dars mashg‘ulotlarini boshlashdan avval ularning institutga o‘qishga kirgunlariga qadar o‘zlashtirgan ijrochilik ko‘nikmalari, imkoniyatlari hamda mahoratlarini o‘qituvchi tomonidan aniqlab olinishi lozim. Bu jarayonni talabadan musiqiy asarlar yoki texnik mashqlar ijro ettirib ko‘rish shuningdek, notani o‘qish mahorati, usulni his qilishi, intonatsiya, eshitib o‘zlashtirishi hamda esda saqlab qolishini tekshirib ko‘rish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, har bir talabaning umumiy ijro imkoniyatidan kelib chiqqan holda tegishli semestr uchun individual ijro dasturi tanlab olinadi. Bu esa kelgusida talabaning belgilangan ijro dasturini bir maromda o‘zlashtirishida hamda o‘zlashtirilgan musiqiy asarni badiiy jihatdan to‘laqonli talqin etilishini ta‘minlashda muhim omil sanaladi. O‘qituvchi fan dasturiga muvofiq har bir talabaga bakalavriat bosqichi davomida hamda tegishli kurs va semestrda o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ijro dasturini ma‘lum qiladi. Tegishli semestr uchun tanlab olinadigan asarlar bilan ularni musiqiy yozuvini eshittirish yoki chalib ko‘rsatish yoki hirgohi qilib berish orqali tanishtiradi hamda o‘zlashtirish bo‘yicha minimal talabni tushuntiradi. Talabaga milliy maqom cholg‘u ijrochiligining nazariy masalalarini tezroq va puxta tushunib olishi uchun tegishli ma‘lumotlar va ko‘rsatmalar berib borilishi samarali natijaga erishish uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bunda talabaga mustaqil ravishda o‘qib o‘rganishi uchun quyidagi mavzularni tavsiya etiladi:

Maqom cholg‘u ijrochiligining nazariy masalalari

Reja:

1. O‘zbek maqomlari xususiyatlari
2. Maqom kuylari
3. Maqom cholg‘u ijrochiligi shakllari

Kalit so'zlar: maqom, cholg'u, ijrochilik, nazariya, masala, xususiyat, kuy, shakl, bilim, amaliyot, turkum, ko'nikma, uslub.

O'zbek maqomlari xususiyatlari. O'zbek milliy maqomlari Sharq maqom san'atining uzviy qismi hisoblanadi. U o'n ikki maqom asosida yuzaga kelgan bo'lib, bugungi kunda uning quyidagi turlari amaldadir:

1. Shashmaqom
2. Xorazm maqomlari
3. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari


Mazkur maqomlar o'zbek olimlari Abdurauf Fitrat, Is'hoq Rajabov, Yunus Rajabiy, Fayzulla Karomatov, Ravshan Yunusov, Otanazar Matyoqubov, Oqilxon Ibrohimov, Soibjon Begmatov kabilar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Bu o'rinda olimlarimizning tadqiqotlariga suyangan holda o'zbek maqomlarining asosiy nazariy xususiyatlariga e'tiboringizni tortamiz.

Shashmaqom Mushkilot (kuy) va Nasr (ashula) bo'limidan iborat. Mushkilot bo'limida 46 kuy va Nasr bo'limida esa 153 aytim yo'li (taronalar bilan) bor. Bu ulkan meros bo'lib, o'zbek maqom cholg'u ijrochiligining negizi hisoblanadi. Shashmaqomning tovushqatori quyidagicha:


Buzruk




Rost




Navo



Dugoh



Segoh



Iroq




Xorazm maqomlari ham Chertim (kuy) va Aytim (ashula) bo'limidan iborat. Uning Chertim bo'limida 45 kuy va Aytim bo'limida 37 kuy mavjud. Xorazm maqomlarining tovushqatori Shashmaqom tovushqatori bilan deyarli bir xil. Xorazm Urfiy maqomlari (Toshkent-2021; "ADAST POLIGRAF") nomli kitobning 21-betida quyidagicha ma'lumot berilgan "Olti yarim maqom tarkibidagi har bir maqomda to'rttadan lad tizimi bor. Urfiy maqomlarning aytim qismi tarkibiga kirgan beshta maqomda 13ta asosiy lad tuzilmalari mavjud." Ushbu ma'lumotlarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun mazkur kitobni mustaqil ravishda o'qish tavsiya etiladi.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari faqat ashula yo'lidan iborat bo'lib, ular turkum shaklida tasnif etilgan va I, II kabi variantlari mavjud. Mazkur maqom yo'llarining tovushqatori quyidagicha:

Bayot



Dugoh-Husayniy



Chorgoh



Gulyor-Shaxnoz



Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, Farg'ona vodiysida Bayot, Dugoh, Chorgoh, Ushshoq, Miskin, Ajam va Nasrullovi maqom yo'llari ijrosiga alohida e'tibor berilsa, Toshkent vohasida nisbatan Munojot, Cho'li Iroq, Giryva va Ko'cha bog'i maqom yo'llari ko'proq ijro etib kelingan. E'tibor berilsa, o'zbek maqomlari o'ziga xos xususiyatlarga ega va ular bo'lajak sozandalar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi kerak.

Maqom kuylari. O'zbek maqom kuylari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, unda parda (lad), usul va shakl muhim o'rin tutadi. *Parda* – bu kuy asosini tashkil qiluvchi tovush tizimidir, *usul* – doirada chalinadigan ritmik formula, *shakl* esa kuy va ashulalarning navlaridir. Aynan mana shu uch asosga ko'ra, o'zbek maqom kuylari o'zlashtiriladi va ijro etiladi.

O'zbek maqom kuylari o'ziga xos turkumiylik shaklida yaratilgan. Ularda vazminlik va ko'tarinkilik, mahzunlik va quvonch uyg'un ifodalanadi. Bu kuylar o'tmish yetuk maqomdon san'atkorlarning ijod namunasi hisoblanadi. Bo'lajak sozandalar tomonidan ularning o'zlashnirilishi taqozo etiladi.

O'zbek maqom kuylari xarakterli sadolanadi. Misol uchun, Shashmaqomning tarkibidagi Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar kuylari jo'shqin va ko'tarinki ruhda yangraydi. Shuningdek, Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas va Saqil kuylar o'ziga xos tarzda salobatli sadolanadi. Mazkur kuylarni o'zlashtirmasdan maqom cholg'u ijrochiligida malaka hosil qilib bo'lmaydi.

Usullar maqomlarning tuzilish xarakterini belgilovchi omillaridandir. Ularni ajrata olish maqomlar qiyofasini to'g'ri tushunishga imkon beradi shuningdek, maqom ijrochiligida kuy ijrosi jarayonini doira usullari yo'naltirib boradi. O'tmishda mashqur bo'lgan Saqil, Hafif, Ramal, Xazaj, Du-yak, Ufar, Foxtiy, Turk, Muxammas, Nim Saqil, Avsat, Avj, Chorzarb, Zarbul-Fatx, Zarbi asil, Samoiiy, Chanbar, Purafshon, Miatayn kabi ritm o'lchov bahrlari va doyra-nog'ora usullari bizning kungacha yetib kelgan. Bu usullar musiqa asarlari, xususan maqom yo'llarida uchraydi. Ular qachon va kim tomonidan yaratilgani bizga qorong'i. Ularni sodda yoki murakkabligiga qarab, oldin-keyin yaratilganini bilib olish mumkin. Manbalarda ko'rsatilishicha, dastavvalgi usul inson nabzining urishidan olingan. Tomirni barmoq

bilan ushlab ko‘rilsa, uning go‘yo “tan-tan”ga o‘xshash bir tekis urayotgani bilinadi. Olimlar buni “Usuli zarbi qadam” (“Qadimiy zarb usuli), deb ataganlar.

Bugungi kun maqom ijrochiligi amaliyotida quyidagi usullar qo‘llanilib kelinmoqda: Tasnif, Tarje‘, Gardun, Muxammas, Saqil, Saraxbor, Talqin, Chapandoz, Nasr, Savt, Mo‘g‘ulcha, Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufor. Ular quyida nomlari keltirilgan qadimiy usullar asosida ijro etiladi:

Bo‘lajak maqom sozandalari usullarni o‘zlashtirishi kerak, aks holda, maqom cholg‘u ijrosida ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Maqom cholg‘u bo‘limi kuylarida xona, bozgo‘y shuningdek, ashula bo‘limida namudlar muhim o‘rin tutadi. **Xona** – bu mantiqan yakunlangan kuy bo‘lagi, **bozgo‘y** (qaytariq) – ma‘lum bir kuy tarkibida muayyan bo‘lagining har doim takrorlanib kelishi va **namud** esa muayyan kuy jumlasini o‘zga kuyda namoyon bo‘lishidir. Hozirgi kunda o‘zbek maqom ijrochiligida quyidagi namudlar keng amaldadir: Uzzol, Nasrullovi, Ushshoq, Navo, Bayot, Dugoh, Segoh, Oraz, Muhayyari Chorgoh, avji Zebo pari hamda avji Turk.

Bu namudlarni bo‘lajak maqom sozandalari tomonidan puxta o‘zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Maqom cholg‘u ijrochiligi shakllari. O‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligi bir necha shakllarga ega. Ularning quyidagilari ommaviy tus olgan:

1. Ansambl ijrochiligi
2. Yakkaxon ijrochilik.

Ansambl ijrochiligining imkoniyatlari keng bo‘lib, unda cholg‘ularning ko‘p turlari ishtirok etadi. Shuningdek, bir turdagi cholg‘ular oilasi ham maqom ansambl ijrochiligida keng qo‘llanib kelinmoqda. Misol uchun: dutor cholg‘usi, tanbur cholg‘usi, g‘ijjak cholg‘usi, chang va qonun cholg‘usi kabi.

Maqom ansambl ijrochiligida sozandalar bir-biridan o‘rganishadi, malaka almashadi va ko‘nikmasini rivojlantirib boradi. Shu sababli musiqa ta‘limi jarayonida ansambl ijrochiligiga ahamiyat bilan qaraladi.

Yakkaxon ijrochilik shakli sozanda uchun keng imkoniyatlarni beradi. Bunda sozandaning bilimi, layoqati va mahorati namoyon bo‘ladi. Biroq, keyingi vaqtlarda

yakkaxon maqom cholg‘u ijrochiligi susayganini qayd etish joiz. Shu sababli musiqa ta’limida bu shaklni kuchaytirish taqozo etiladi. Chunki yakkaxon maqom cholg‘u ijrochiligi individual ijro uslubi va tajribasiga ega bo‘lishning muhim omilidir.

Shunday qilib maqom cholg‘u ijrochiligining nazariy masalalari bo‘lajak maqom sozandalari tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi kerak.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘zbek maqomlari qanday xususiyatlarga ega?
2. Maqom kuylari haqida nimalarni bilasiz?
3. Maqom cholg‘u ijrochiligining qanday asosiy shakllari mavjud?
4. Parda, usul va shakl nima?
5. Xona, bozgo‘y va namud deganda nimani tushunasiz?

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Shashmaqomning tovushqatorini o‘zlashtiring va mustaqil ravishda Tasnif, Tarje’, Gardun asarlardan namunalar o‘rganing.
2. Xorazm maqomlari tovushqatorini o‘zlashtiring va mustaqil ravishda kichik shakldagi asarlardan namunalar o‘rganing.
3. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan murakkab bo‘lmagan kuylarni ijro eting.
4. Otanazar Matyoqubovning “Maqomot” (T.,2004) kitobini o‘qib chiqing va muhokama qiling.

Shashmaqomning Mushkilot bo‘limini turkumli o‘rganish

Reja:

1. Shashmaqomning Mushkilot bo‘limi kuylarining o‘ziga xosligi.
2. Shashmaqomning Mushkilot bo‘limidagi Tasnif, Tarje’, Gardun asarlar turkumi.
3. **Kalit so‘zlar:** Shashmaqom, Mushkilot, bo‘lim, Tasnif, Tarje’, Hafif, Gardun, Muxammas, Peshrav, Saqil, xona, bozgo‘y, cholg‘u, usul, ijrochilik.

Shashmaqom sharq maqom san’atining gultoji sifatida 250 noyob musiqiy asarni o‘zida mujassam etgan. Undagi asarlar so‘z va kuy, badiiyyat va usul

uygʻunligini namoyon etuvchi noyob hodisadir.¹ Mushkilot va Nasr boʻlimlaridan iborat bu Oʻzbek “Shashmaqom”i nota matnlarining oʻz davrida nashr etilishi hamda ularga muvofiq ravishda maqom kuy va ashulalarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea boʻldi”.² Bunday noyob “ilmiy-madaniy voqelik” uzviy davom etishi kerak va shu sababli musiqa taʼlimi jarayonida Shashmaqomni turli yondoshuvlar vositasida oʻrganish hamda oʻzlashtirish dolzarb boʻlib turibdi.

Shashmaqomning Mushkilot boʻlimi oʻziga xos yaxlit turkum asarlardan iborat. Shu maʼnoda uni turkumli oʻrganish bir qator taʼlimiy imkoniyatlarni beradi. Bunday imkoniyatlarning asosiylari quyidagilardir:

- Har bir asarning oʻziga xos xususiyatlarini va ijro uslublarini chuqur oʻzlashtirish;
- Yagona mavzuli asarlarning individual originalligi va umumiy uygʻunlik jihatlarini bilish;
- Ijro uslublari, jilolarini anglash va individual ijro yoʻllarini kashf etishga intilish;
- Har bir asarning xususiy va turkumga uygʻunlik maʼno-mazmunini kashf etish.

Shu sababli Shashmaqomning Mushkilot boʻlimi asarlarini turkumli oʻrganish – ularni kutilgan darajada oʻzlashtirish va ijro uslubini anglash omillaridan biridir. Mazkur yondoshuv asosida Shashmaqomning Mushkilot boʻlimi asarlarini oʻzlashtirish boʻlajak maqom sozandalari uchun muhim taʼlimiy va ijodiy yoʻllardan hisoblanadi.

Shashmaqomning Mushkilot boʻlimidagi asarlar turkumi quyidagilardan iboratligi maʼlum:

No	Asar nomi	Doira usuli
1	Tasnif asarlar	2/4 yoki 4/4 oʻlchovli
2	Tarjeʼ asarlar ³	2/4 yoki 4/4 oʻlchovli

¹ Shashmaqom haqidagi muhim tadqiqotlar uchun Darslikning “Tavsiya etiladigan adabiyotlar” boʻlimiga qarang.

² “Xalq soʻzi” gazetasi 2017 yil 18 noyabr soni.

³ Tarjeʼ asari Rost maqomida mavjud emas, aslida boʻlganligi idrok etiladi, lekin yozib olinmagan.

3	Gardun asarlar ⁴	5/4, 2/4 va 3/4 o'lchovli
4	Muxammas asarlar	2/4 yoki 4/4 o'lchovli
5	Saqil asarlar	2/4 yoki 4/4 o'lchovli

E'tibor berilsa, Shashmaqomning Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlari Mushkilot bo'limida mazkur qirqdan oshiq asarlar mavzu va ritmi jihatidan turkumlashgan asarlardir. Lekin, ular doira usuli asosida o'ziga xos ijro yo'llariga egaligini belgilab turadi. Eslatib o'tish joizki, "Tasnif" – yaratilgan asar, "Tarje'" – qaytarma, "Gardun" – falak gardishi, "Muxammas" – beshlik va "Saqil" esa vazmin, bosiq ma'nolarini anglatadi. Bu o'rinda ushbu turkum asarlarning Ustozlar Ishaq Rajabiy (1927-1982) va Fayzulla Karomatovning (1925-2015) tavsifiga asoslangan tahliliga e'tiboringizni tortamiz.⁵

* * *

Shunday qilib Shashmaqomning Mushkilot bo'limi asarlarini ana shunday besh shartli turkumga bo'lib o'rganish kutilgan samarani beradi. Bunda asarlarning original va umumiy xususiyatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Eslatib o'tish joizki, Shashmaqomning Dugoh maqomida "Peshravi Dugoh" va "Samoii Dugoh" asarlari mavjud. Bu asarlar Tarje' yo'sinidagi kuylar bo'lib, faqat peshrav (⁴/₄ o'lchovli) va samoi (²/₄ o'lchovli) doira usullari bilan ijro etiladi.

2-mavzu: 2-7-daralar:

Shashmaqom mushkilot bo'limining Tasnif, Tarje' va Gardunlaridan o'rganish.

1. Tasnif asarlar turkumi. Shashmaqomning Mushkilot bo'limidagi Tasnifi Buzruk, Tasnifi Rost, Tasnifi Navo, Tasnifi Dugoh, Tasnifi Segoh va Tasnifi Iroq cholg'u turkum asarlari "o'zi mansub har bir maqom kuy yo'li ruhini ma'lum darajada o'zida aks ettirgan bo'lib, ulardagi tematik material cholg'u bo'limlaridagina emas, ashula yo'llarida ham vaqti-vaqti bilan foydalaniladi. Tasniflarning ayrim melodik-intonatsion qurilmalari ma'lum o'zgarishlar bilan, ayniqsa, Tarje', Muxammas va

⁴ Gardun asari Iroq maqomida mavjud emas, aslida bo'lganligi idrok etiladi, ammo yozib olinmagan.

⁵ Rajabov I., Karomatov F. Shashmaqom.//Shashmaqom. Yozib oluvchi Yunus Rajabiy. I. Buzruk.-T.: Badiiy adabiyot nashriyoti. 1966. 5-7-betlar.

Saqil asarlarda ko'proq uchraydi". Shu ma'noda Tasnif turkum asarlarni o'zlashtirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Tasnif asarlar har bir maqomni boshlovchi bosh mavzu asarlardir;
2. Tasnif asarlar Shashmaqomdagi har bir maqomning kuy yo'li ruhini belgilaydi;
3. Tasnif asarlardagi tematik materiallar keyingi turkum asarlarda muayyan o'zgarishlar bilan uchraydi;
4. Tasnif asarlar ijrosida ularning ritmik o'lchovi qat'iy hisobga olinishi kerak.

Bu o'rinda e'tiboringizni "Tasnifi Buzruk" xususiyatlariga misol tariqasida e'tiboringizni tortamiz:



TASNIFI BUZRUK

M. M. ♩ = 84 - 88

N. Qodirov g'ijjak cholg'usi uchun moslashtirgan

1 Xona

Bozgo'y

7

2 Xona

14

Bozgo'y

22

3 xona

29

Bozgo'y

36

4 Xona

Musical staff 36-42: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measure 36 starts with a piano (*p*) dynamic and a slur over the first two notes. Measure 37 has an 'x' above the first note. Measure 42 ends with a fermata.

43

Musical staff 43-49: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measures 43-49 contain a continuous melodic line with eighth and sixteenth notes.

50

Musical staff 50-56: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measures 50-56 contain a continuous melodic line with eighth and sixteenth notes.

57

Bozgo'y

Musical staff 57-63: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measure 57 is marked 'Bozgo'y'. Measure 63 has a piano (*p*) dynamic and an 'x' above the first note. Measure 63 ends with a fermata.

64

5 Xona

Musical staff 64-70: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measure 64 starts with a fermata. Measures 64-70 contain a continuous melodic line with eighth and sixteenth notes.

71

Musical staff 71-77: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measures 71-77 contain a continuous melodic line with eighth and sixteenth notes.

78

Musical staff 78-84: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measures 78-84 contain a continuous melodic line with eighth and sixteenth notes.

85

Bozgo'y

Musical staff 85-91: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measure 85 is marked 'Bozgo'y'. Measure 91 has a piano (*p*) dynamic and an 'x' above the first note. Measure 91 ends with a fermata.

92

6 Xona

Musical staff 92-98: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measure 92 starts with a fermata. Measures 92-98 contain a continuous melodic line with eighth and sixteenth notes.

99

Musical staff 99-105: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measures 99-105 contain a continuous melodic line with eighth and sixteenth notes.

106

Musical staff 106-112: Treble clef, key signature of one sharp (F#). Measures 106-112 contain a continuous melodic line with eighth and sixteenth notes.

113

Musical staff 113: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with a quarter rest followed by eighth notes.

120 Bozgo'y

Musical staff 120: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with a quarter rest followed by eighth notes. A dynamic marking *p* is present.

127 7 Xona

Musical staff 127: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with a quarter rest followed by eighth notes.

134

Musical staff 134: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with eighth notes.

141

Musical staff 141: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with eighth notes.

148

Musical staff 148: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with eighth notes.

155 Bozgo'y

Musical staff 155: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with eighth notes. A dynamic marking *p* is present.

162

Musical staff 162: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with eighth notes. Dynamic markings *p* and *mf* are present.

169 8 Xona



Musical staff 169: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with eighth notes.

176

Musical staff 176: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with eighth notes.

183

Musical staff 183: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with eighth notes.



E'tibor berilsa, mazkur asar nafaqat Buzruk maqomining, balki butun Shashmaqomning boshlovchi asari hisoblanadi. Unda sakkiz xona va sakkiz bozgo'y mavjud.⁶ Asarning ikkinchi xonasidan boshlab keyingi xonalarda kuy jumalari bosqichma-bosqich yuqori pardalarga o'tib rivojlanib boradi shuningdek, bir xil shaklda takrorlanadi. Yuqori pardalarda takrorlanadigan kuy jumalari shaklini e'tibor berib puxta o'zlashtirilsa kuyni juda osonlik bilan yod olish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Yuqorida aytilganidek Tasnif asarlarida kuy jumalari bir xil shaklda ko'p bora takrorlanganligi bois uning badiiy talqiniga jiddiy e'tibor qaratish lozim, aks holda asar zerikarli bo'lib qolishi mumkin. Bunda maqom ijrochiligining o'ziga xos qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirish talab etiladi.

Fan dasturida ko'rsatilgan mavzularga muvofiq birinchi kursning har bir semestri davomida kami bilan bittadan Tasnif yoki Tarje' asarlaridan namunalar o'rganilishini nazarda tutilgan. Shu bois "Tasnifi Rost" asarini ham taqdim etishni ma'qul deb bildik. Ushbu asarda yetti xona va yetti bozgo'y mavjud.

⁶ "Xona" – boshqa kuyning intonatsion-tematik asosi bo'lib, o'z qaytariqlarida esa shu boshlanishdagi birinchi xonaning rivojidan iborat; "Bozgo'y" – kuyning takrorlanadigan qismidir.





TASNIFI ROST

M. M. ♩ = 84 - 88

N.Qodirov g'ijjak ijrosi
uchun moslashtirgan

1-Xona

15 Bozgo'y 2-Xona

22

29 Bozgo'y

36 3-Xona

43

49



Bozgo'y

56



63

4-Xona




70



77



83



90



97

Bozgo'y



104

5-Xona



111



180



187




194



201



207



214



221



228



235

Bozgo'y

7-Xona



242

Musical staff 242: Treble clef, starting with a half rest, followed by eighth-note patterns and a quarter rest.

249

Musical staff 249: Treble clef, eighth-note patterns and quarter notes.

256

Musical staff 256: Treble clef, eighth-note patterns and quarter notes.

263

Musical staff 263: Treble clef, eighth-note patterns and quarter notes.

270

Musical staff 270: Treble clef, eighth-note patterns and quarter notes.

277

Musical staff 277: Treble clef, eighth-note patterns and quarter notes.

284

Musical staff 284: Treble clef, eighth-note patterns and quarter notes.

291

Musical staff 291: Treble clef, eighth-note patterns and quarter notes.

297

Musical staff 297: Treble clef, eighth-note patterns and quarter notes.

304



311



318



325



331

Bozgo'y



Ushbu asarlarni puxta o'zlashtirish ijro malakasini kutilgan darajada shakllanishini ta'minlaydi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Shashmaqom o'zida nechta Tasnif asarlarini mujassam etgan?
2. Shashmaqomning Mushkilot bo'limidagi asarlar turkumini aytib bering?
3. Tasniflarning ayrim melodik-intonatsion qurilmalari ko'proq qaysi asarlarda uchraydi?

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

Buzruk va Rost maqomi tovushqatori asosida turli xil ritmik mashqlar bajaring. Tasnifi Buzruk, Tasnifi Rost, Tasnifi Navo, Tasnifi Dugoh, Tasnifi Segoh, Tasnifi Iroq asarlaridan birini tegishli semestr uchun belgilangan ijro dasturingizga muvofiq o'zlashtiring. Bunda Tasnif asarlarining o'lchovi 2/4 tartibida kelishiga e'tibor bering.

2. Tarje' asarlar turkumi. Shashmaqomning mushkilot bo'limidagi Tarje'i Buzruk, Tarje'i Navo, Tarje'i Dugoh, Tarje'i Segoh, Tarje'i Iroq cholg'u turkum asarlari

“asosan peshrav⁷ tusidagi kuylar bo‘lib, tantanavor yangraydi va shodiyona kayfiyatlar baxsh etadi, doira usuli esa biroz tezroq sur’atda ijro etiladi”. Shu jihatdan Tarje’ asarlar turkumini o‘zlashtirishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Shashmaqomdagi Tarje’ asarlar tantanavor xususiyatga ega;
2. Tarje’ asarlarda muayyan melodik tuzilma nisbatan balandroq pog‘onada boshlanadi va pog‘onama-pog‘ona pastga harakat qilib bozgo‘yga qaytadi;
3. Tarje’ asarlarida doira usuli tezroq tempda ijro etiladi va faqat Iroq maqomida Tarje’ asari besh taktli bo‘lib keladi;
4. Tarje’ asarlarining ritmik o‘lchoviga ijro jarayonida qat’iy amal qilish lozim.

Shashmaqomning Tarje’ turkum asarlarida doira usullari bir turli bo‘lishiga qaramay kuy jihatdan farqlanadi va turlicha katta-kichik hajmda bo‘ladi.

Mazkur o‘rinda misol tariqasida **Tarje’i Buzruk** asari xususiyatlariga e’tibor bering:



TARJE'I BUZRUK

M. M. $\text{♩} = 116$
1 - Xona

N.Qodirov g‘ijjak cholg‘usi
uchun moslashtirgan

8 *mf* 2 - Xona

15

⁷ “Peshrav” – kuy rivojidadagi uslublardan biri bo‘lib, bunda muayyan tuzilma balandroq pog‘onadan boshlanadi va pog‘ona-pog‘ona pastga harakat qilib, har gal bozgo‘yga qo‘shiladi.

21



27

3- Xona



33

Bozgo'y



39



46

4- Xona



53



61

Bozgo'y



67



74

5 Xona



80

Bozgo'y



86



92 6 Xona

99

105

110 7 Xona

117

123

129 Bozgo'y

135


142 8- Xona

148 Bozgo'y

154



159



Diqqat qilinsa, bu asarda sakkiz xona va besh bozgo‘y mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarje' asarlar turkumiga qaysi asarlar kiradi?
2. Qaysi maqomda Tarje' asari mavjud emas?
3. Tarje' asarlar turkumini o'zlashtirishda nimalarga e'tibor berish lozim?

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

Tarje'i Buzruk, Tarje'i Navo, Tarje'i Dugoh, Tarje'i Segoh va Tarje'i Iroq cholg'u turkum asarlaridan birini tegishli semestr uchun belgilangan ijro dasturingizga muvofiq o'zlashtiring.

3. Gardun asarlar turkumi. Shashmaqomning mushkilot bo'limidagi Garduni Buzruk, Garduni Rost, Garduni Navo, Garduni Dugoh va Garduni Segoh cholg'u turkum asarlari "Doira usuli ancha murakkab bo'lib, kuy tuzilishi jihatidan ham boshqa qismlardan farq qiladi; ularda asosan lirik kayfiyat aks ettirilgan" Gardun turkum asarlari murakkab o'lchovda bo'lib, 5/4, 2/4 va 3/4da keladi. Shu ma'noda bu turkumdagi asarlarni o'zlashtirishda quyidagilarga diqqat qilish darkor:

1. Gardun asarlarda doira usuli murakkab;
2. Gardun asarlarining kuy tuzilishi farqli xususiyatlarga ega;
3. Gardun asarlari lirik (ishq, holat va tuyg'ular) kayfiyatni ifodalaydi;
4. Gardun asarlarining avvalo doira usulini o'zlashtirish lozim.

Misol uchun bu o'rinda **Garduni Buzruk** asariga diqqat qiling:



GARDUNI BUZRUK

M. M. ♩ = 88

Bozgo'y

N.Qodirov g'ijjak cholg'usi
uchun moslashtirgan

1-xona

mf

6 2-xona

13 3-xona

20 Bozgo'y

mf

26 4-xona

f

32

38

44 Bozgo'y

50 5-xona

f

56

62

68

74 *Bozgo'y*
mf

80

Bu asar o'zga asarlar turkumidan farqli o'laroq bozgo'y bilan boshlanadi va olti xona va to'rt bozgo'ydan iborat. Asar kichik hajmda bo'lishiga qaramasdan g'oyatda his-hayajonlarga boy.



GARDUNI ROST

M. M. ♩ = 88


N. Qodirov g'ijjak cholg'usi uchun moslashtirgan

1-xona

mf

7 *Bozgo'y*

13 2-xona



19 3-xona



26 4-xona



32 Bozgo'y



39 5-xona




45 6-xona



52 7-xona




59 8-xona



66 9-xona



73 10-xona



mf

f

80 11-xona

86 *f* 12-xona

92 *mf* 13-xona

99 Bozgo'y

106 14-xona

113 *mf* 15-xona

117

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Gardun asarlar turkumiga qaysi asarlar kiradi?
2. Qaysi maqomda Gardun asari mavjud emas?
3. Gardun asarlar turkumini o'zlashtirishda nimalarga diqqat qilish darkor?

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

Garduni Buzruk, Garduni Rost, Garduni Navo, Garduni Dugoh va Garduni Segoh cholg'u turkum asarlaridan birini tegishli semestr uchun belgilangan ijro dasturingizga muvofiq o'zlashtiring. Bunda takt o'lchovi hamda shunga mos doira usuliga e'tibor qarating.

4. Shashmaqomning Mushkilot bo'limidagi Tasnif, Tarje', Gardun asarlari bilan Muxammaslar orasida Nag'mai Oraz Navo (Navo maqomi), Peshravi Dugoh, Samoi Dugoh (Dugoh maqomi), Hafifi Segoh (Segoh maqomi) asarlari mavjud. Ayniqsa Peshrav nomli asarlar Xorazm maqomlarida ko'p uchraydi. Bu asarlar musiqiy shakli va usuli jihatidan Tasnif yoki Tarje'lar yo'sinida bo'lganligi bois ularni maqom cholg'u ijrochiligini o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichlarida dasturga kiritish mumkin. Shuningdek, mazkur asarlar nomining lug'aviy ma'nosi bilan I.A.Akbarov tomonidan 1987-yilda nashr etilgan "Музыка луғати"da berilgan ma'lumotlar orqali tanishib olish tavsiya etiladi.

3-mavzu: 8-17-darslar:

Nasr bo'limi ikkinchi guruh sho'balarining Savt yoki Mo'g'ulchalaridan (tarkibiy qismlari bilan) o'rganish.

Shashmaqomning Nasr bo'limi turkum asarlari

Reja:

1. Shashmaqomning Nasr bo'limi kuylarining o'ziga xosligi.
2. Shashmaqom Nasr bo'limining Savt va Mo'g'ulchalari turkumi.

Kalit so'zlar: Shashmaqom, bo'lim, guruh, sho''ba, Saraxbor, Talqin, Nasr, Savt, Mo'g'ulcha, Mustazod, Oraz, namud, daromad, meyonxat, usul, avj.

Shashmaqom Sharq maqom san'atining gultoji sifatida ushbu san'atga doir barcha xususiyatlarni o'zida mujassam etgan. Uning Nasr bo'limi ikki yirik sho''badan iborat bo'lib, o'ziga xos va original vokal turkum asarlarni qamrab olgan. Ular quyidagicha:

Birinchi guruh sho''ba turkum asarlar:

1. Saraxbor ashulalar va ularning taronalari
2. Talqin ashulalar va ularning taronalari
3. Nasr ashulalar va ularning taronalari

Ikkinchi guruh sho''ba turkum asarlar:

1. Mo'g'ulcha turkum ashulalari.⁸

⁸ Bu turkum ashulalar doira usuli bilan farqlanuvchi Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Chapandoz va Samandar ashulalaridan iborat. Bu turkum ashulalar bir paytlar bir butunlikda Shashmaqomda mavjud bo'lgan, lekin ular yozib olinmagan. Shu ma'noda Iroq maqomining ikkinchi guruh turkum ashulariga ega emasmiz.

2. Savt turkum ashulalari
3. Mustazod turkum ashulalari

Shashmaqomning Nasr bo‘limiga oid bu turkum asarlar bo‘lajak sozandalar tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi kerak. Shu sababli bu o‘rinda uning musiqiy xususiyatlari tahliliga e‘tiboringizni tortamiz.

2-guruh sho‘ba ashulalar turkumi

Mo‘g‘ulcha turkum ashulalari. “Mo‘g‘ul” so‘zining ma‘nosi masalasida olimlar turlicha fikrni bildirib, musiqashunoslar uning Mo‘g‘il (mang‘ul) xalqi musiqa san‘ati uslubiga xosligiga ishora qiladilar.⁹ Lekin, tasavvufshunos Abdumalik Yoqubovning fikricha, Shashmaqomda keladigan “mo‘g‘ulcha” atamasi Avestoga e‘tiqod qiluvchi *mug‘larning* (otashparastlarning) musiqa san‘ati uslubini anglatadi va ularga *ildamlilik, kuychanlik* xos xususiyatdir; bu Muhammad Narshaxiyning (X asr) “Tarixi Buxoro” asarida keltirilganidek, X asrda ham Buxoroda mug‘larning (otashparastlarning) o‘z ibodatxonalarida gohlarni kuylaganligi bilan asoslanadi.¹⁰

Haqiqatan ham Shashmaqomning Mo‘g‘ulcha va Savt turkumi ashulalari Saraxbor, Talqin va Nasr turkum ashulalari bilan kuy asoslari jihatidan umumiy bo‘lsa-da, uslub tomonidan o‘ziga xosdir.¹¹ Shu jihatdan Mo‘g‘ulcha va Savt ashulalar turkumini tarkibiy tashkil qiluvchi Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufor sho‘ba ashulalari o‘ziga xos uslublarga ega. Mo‘g‘ulcha ashulalarda doira usuli takt oldidan boshlanadi.

Mo‘g‘ulcha turkumi ashulalari amaldagi Shashmaqom tarkibida quyidagicha:

Buzkur maqomida	Dugoh maqomida
Mo‘g‘ulchai Buzruk	Mo‘g‘ulchai Dugoh
Talqinchai Mo‘g‘ulchai Buzruk	Talqinchai Mo‘g‘ulchai Dugoh
Qashqarchai Mo‘g‘ulchai Buzruk	Qashqarchai Mo‘g‘ulchai Dugoh
Soqiynomai Mo‘g‘ulchai Buzruk	Soqiynomai Mo‘g‘ulchai Dugoh
Ufori Mo‘g‘ulchai Buzruk	Ufori Mo‘g‘ulchai Dugoh

⁹ Matyoqubov O. Maqomot. –T.: “Musiqqa”. 2004. 181-bet.

¹⁰ Yoqubov A. Zikr maqomlari. // Pedagogikaning dolzarb masalalari. Ilmiy to‘plam. –T.: TVCHDLI. 2020. 31-36-betlar.

¹¹ Matyoqubov O. Maqomot. –T.: “Musiqqa”. 2004. 181-bet.

Navo maqomida	Segoh maqomida
Mo'g'ulchai Navo	Mo'g'ulchai Segoh
Talqinchai Mo'g'ulchai Navo	Talqinchai Mo'g'ulchai Segoh
Qashqarchai Mo'g'ulchai Navo	Qashqarchai Mo'g'ulchai Segoh
Soqiynomai Mo'g'ulchai Navo	Soqiynomai Mo'g'ulchai Segoh
Ufori Mo'g'ulchai Navo	Ufori Mo'g'ulchai Segoh

Ushbu 20 ta ashula Shashmaqomdagi Mo'g'ulcha ashulalar turkumini tashkil qiladi. Boshqa maqomlarda ham bo'lganligi idrok etiladi, biroq yozib olinmagan.

Bu turkum ashulalar mumtoz shoirlarning she'rlari bilan ijro etiladi. Misol tariqasida Navo maqomining "Mo'g'ulchai Navo" ashulasiga diqqat qiling:



MO'G'ULCHAI NAVO

N.Qodirov g'ijjak cholg'usi
uchun moslashtirgan

O'rtacha

Ударные *mf*

Mas-ti jo - mi vasl e - tib av - val me

4

ni zor ay - la ding, So'ng ne-din hij - ron xu

7

mo - ri - ga gi - rif - tor ay - la ding So'ng ne

p


10



13




16




19



22



25



28




31



34



37



40
dim sar - shor - lig', Bil-gach o - ni qah-ring

43
o' - ti - g'a sa - za - vor qy - la ding Yuz u
f

46
yur - ding do'st - lig' - din, dush-ma-ni jo-nim bo'

49
lub, O - qi - bat men zor - g'a yo'q rasm

52
- lar bor ay - la - ding o

55
ey yo - ray o o

58
jo - ni - mo Vaqt-

61
dur Mu-nis-g'a yor o'l - sang ka - ram - din kim, a

64
ni As-ru mis - kin qil - ding-u g'am xay-li - ga

67
yor ay - la ding As - ru mis - kin qil - ding
p *mf*

u fam xay-li - g'a yor ay - la ding *p*

Mo'g'ulchai Navo ashulasi Shermuhammad Munis (XIX asr), Talqinchai Mo'g'ulchai Navo Atoiy (XV asr), Qashqarchai Mo'g'ulchai Navo Nodira (XVIII-XIX asr), Soqiynomai Mo'g'ulchai Navo Avaz O'tar (XIX-XX asr) hamda Ufori Mo'g'ulchai Navo yana Munis g'azali bilan ijro etiladi. Mo'g'ulchanning doira usuli $\frac{5}{4}$ ($\frac{2}{4} + \frac{3}{4}$); Talqinchasi ($\frac{3}{8} + \frac{3}{4}$); Qashqarcha va Soqiynomasi $\frac{4}{4}$; Ufori $\frac{6}{8}$ o'lchovli. Mo'g'ulchai Navo ashula turkumida Bayot va Navo namudlari qo'llanilgan.

Eslatib o'tish joizki, "Mo'g'ulcha turkum ashulalarining pardalari Saraxbor ashulalarning bir muncha ixchamlashtirilgan ko'rinishidir".¹² Shu sababli ularning ijrosida bu xususiyat hisobga olinishi kerak.

Bo'lajak maqom sozandalarining Mo'g'ulcha turkum ashulalari ijrosini o'zlashtirishlari uchun quyidagilarga e'tibor qaratishlari tavsiya etiladi:

1. Mo'g'ulcha ashulalar turkumi Saraxbor ashulalar turkumiga o'xshash salobatlik xususiyatiga xos;
2. Mo'g'ulcha ashulalar turkumidagi asarlarning tovushqatori va unga xos pardalarini o'zlashtirish;
3. Mo'g'ulcha ashulalar turkumidagi asarlarning takt o'lchovini bilish hamda unga mos doira usulini o'zlashtirish;
4. Mo'g'ulcha ashulalar turkumi tarkibiy qismlaridagi asarlarning kuy jumalari doira usuli o'zgargan holda takrorlanishiga e'tibor qaratish hamda kuyni yod olishda undan oqilona foydalanish;
5. O'rganilayotgan asarning nota hamda g'azal matnlarini uyg'unlikda o'zlashtirish shuningdek, o'rganishning boshlang'ich jarayonlarida nota matniga asoslanish;
6. Asarning nota matni bilan yetuk maqom ijrochilarining ijro variantlaridagi juz'iy farqlarni anglash;

¹² Shu manba. 132-bet.

7. Mo'g'ulcha ashulalar turkumidagi namudlar va avjlar ijrosiga alohida e'tibor berish;
8. Mo'g'ulcha ashulalar turkumi nisbatan ildamroq ijro etiladi.
9. Asarni badiiy talqin etish sifatining yuqoriligini ta'minlash uchun uning ohangini to'la his etish va g'azalining ma'nosini chuqur anglashga e'tibor qaratish lozim;



TALQINCHAI MO'G'ULCHAI NAVO

N.Qodirov g'ijjak cholg'usi
uchun moslashtirgan

O'rtacha

8

15

21

27

mf

Ey, la - to - fat__ sub-hi- din__ to- le'ik - ki__ cho'l-pon ko' zung

Gar-di - shi__ dav - ri qa-mar - da__ fit-na - i__

dav - ron_ ko' zung, Gar-di - shi__ dav - ri__ qa- mar__

da__ fit-na - i__ dav - ron_ ko' zung__ Ik - ki yo -

dur_ qo - shi- da__ pay - vas - ta ming__ no - vak bi-la__ Ne a

34
 jab har bir na-zar - da qil-sa yuz qur - bon ko'zung.

41
 Ne a - jab har bir na-zar - da qil-sa yuz

47
 qur - bon ko' zung Qas-di jo - nim qil-g'a-li ay - nul-ya

54
 qin bo'l - di man - go *f* An-da- kim. boq-di yi- roq din noz i-

62
 la pin - hon ko' zung An-da- kim boq-di yi- roq

69
 din noz i - la pin - hon ko' zung Qas-di jo - nim qil-g'a

76
 li ay - nul ya - qin bo'l-di man-go An-da- kim


83
 boq-di yi- roq :- din noz i - la pin-hon ko' zung-o

90
f Chun-ti - kil - di bu ma- ning jo nim-g'a, ol -

97
 may qo'y-ma- g'ay, G'am-za bir - la yuz me ning - dek jo-ni


104
 ni ol - g'on ko' zung o
mf

111




o o o

119



Har ne-cha - kim tel-mu rub

127



boq - sa A - to - yi mus-ta- hiq, Bir na- zar qil-mas an- ga

134



tang - ri u- chun eh - son ko' zung Bir na- zar

141




qil - mas an- ga tang - ri u- chun eh - son ko' zung



QASHQARCHAI MO'G'ULCHAI NAVO

N.Qodirov g'ijjak cholg'usi
uchun moslashtirgan

O'rtacha



Ket - di hu-shum ul pa-ri vash jil - va o - g'oz ay - la - gach

mf

5




O'r - ta - di jon par - da - sin mut - rib na - vo soz ay - la - gach
O‘zbek xalq musiqasining xarakterli tomonlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning vohalarga xosligi shuningdek, shakli, diapazoni, ohangi va ritmi jihatidan farqlanishini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Farg‘ona-Toshkent kuy-qo‘shiqlari va ijro uslubi bilan Xorazm vohasining musiqiy asarlari hamda ijrochilik uslubi yaqqol

²⁰ Yu.Rajabiy. O‘zbek xalq muzikasi. II tom. T.: 1957. 8-bet.

²¹ Do‘l nog‘ora- doira shaklida bo‘lib, ikki tomoniga otning terisi qoplangan bo‘ladi. Uning gardishiga o‘rnatilgan ichakdan qilingan bandidan ushlab kichik tayoqcha bilan chalinadi.

farqlanadi. Buxoro va Samarqandniki yanada o'ziga xos. Farg'ona-Toshkent va Xorazm ashulalarining ko'p qismi o'rta diapazonga ega bo'lgani holda Buxoro xalq ashulalarining aksar qismida diapazon ancha kengligi ko'zga tashlanadi.

O'zbek xalq cholg'u musiqasi ancha boy shuningdek, murakkab shaklga ega bo'lib, ular har bir cholg'uning imkoniyati va xususiyatiga qarab taraqqiy etgani bois ohang va ritmik jihatdan bir-biridan farqlanadi. Yirik shakldagi "Nasrulloi", "Navro'zi Ajam", "Ajam", "Miskin", "Cho'li iroq", "Rok", "Mirzadavlat", "Sarbozcha", "Beksulton", "Munojot" kabi cholg'u kuylari, "Dugoh", "Chorgoh", "Eshvoy", "Kurd", "Girya", "Qalandar" kabi ashulalarning cholg'u yo'llari shular jumlasidandir. Maqom cholg'u ijrochiligi bo'yicha tahsil olayotgan har bir sozanda mazkur cholg'u asarlardan namunalar o'rganishi talab etiladi.



NAVRO'ZI AJAM.

M.M. ♩ = 104

N.Qodirov g'ijjak cholg'usi uchun moslashirgan

The musical score is written in a single system with five staves. The key signature has one flat (B-flat), and the time signature is 2/4. The score includes various musical notations such as dynamics (mp, mf, f), trills (tr), and slurs. Measure numbers 10, 20, 29, 38, and 46 are indicated at the beginning of their respective staves.

56

Musical staff 56: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 56-64. Dynamics: *mf*.

65

Musical staff 65: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 65-73. Dynamics: *mf*.

74

Musical staff 74: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 74-81. Dynamics: *p* — *mf*.

82

Musical staff 82: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 82-89. Dynamics: *mf*.

90

Musical staff 90: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 90-97. Dynamics: *mf*.

98

Musical staff 98: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 98-106. Dynamics: *f*.

107

Musical staff 107: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 107-114. Dynamics: *p*.

115

Musical staff 115: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 115-122. Dynamics: *ff*.

123

Musical staff 123: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 123-130. Dynamics: *ff*.

131

Musical staff 131: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 131-138. Dynamics: *f*.


140

Musical staff 140: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 140-147. Dynamics: *f*.

148

Musical staff 148: Treble clef, key signature of one flat, 4/4 time. Measures 148-155. Dynamics: *f*.

156



164

173

p




Ajam II.

(Birnchi tarona)

N.Qodirov g'ijjak cholg'usi uchun moslashtirgan

M.M. ♩ = 132



9

19

mf

28

38

47

57

f *mf* *f*

67

76 *mf*

86

96

106 *p*

116 *p*

126 *f*

136

145

154

164

173

178 *rit.* *p*



M.M. ♩ = 88 - 92

Ajam III

(Ikkinchi tarona)

N.Qodirov g'ijjak cholg'usi
uchun moslashtirgan

The musical score is written in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a time signature of 3/4. It consists of ten staves of music, each beginning with a measure number on the left. The notation includes eighth and sixteenth notes, rests, and dynamic markings such as 'p' (piano) and 'f' (forte). The piece concludes with a double bar line and repeat dots at the end of the final staff.

6
11
16
21
26
31
36
41
46
51

57



65



72



Hojiniyoz-I

N.Qodirov g'ijjak cholg'usi
uchun moslashtirgan

Og'ir



9



17




25



32



39



47




54



61



69



77



85



92



100



107



113



116



Hojiniyoz-II

N.Qodirov g'ijjak cholg'usi
uchun moslashtirgan

O'rtacha tez.

♩ 4/4

Musical notation for measures 1-5. The first staff is in treble clef with a key signature of one flat (Bb) and a 4/4 time signature. It contains five measures of music with various note values and rests. The second staff is in 4/4 time and contains four measures of music, primarily consisting of eighth notes.

6

Musical notation for measures 6-10. The first staff continues the melody from measure 5. The second staff continues the accompaniment from measure 5.

11

Musical notation for measures 11-15. The first staff continues the melody. The second staff continues the accompaniment.

16

Musical notation for measures 16-20. The first staff continues the melody. The second staff continues the accompaniment.

21

Musical notation for measures 21-25. The first staff continues the melody. The second staff continues the accompaniment.

26

Musical notation for measures 26-30. The first staff continues the melody. The second staff continues the accompaniment.

31

Musical notation for measures 31-35. The first staff continues the melody. The second staff continues the accompaniment.

36

Musical notation for measures 36-40. The first staff continues the melody. The second staff continues the accompaniment.

41

Musical notation for measures 41-45. The first staff contains two first endings, labeled '1.' and '2.', which lead to a double bar line. The second staff continues the accompaniment. The word 'rit.' is written below the first staff.



Savti miskin

Q.Umarov g'ijjak cholg'usi
uchun moslashtirgan

M.M. ♩ = 62

2/4

mp

f

f



Mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbek xalq musiqa merosini o'rganishdan ko'zlangan maqsad nimalardan iborat?
2. O'zbek xalq musiqasi tarkibini qanaqa asarlar tashkil etadi?
3. O'zbek xalq musiqasida cholg'u ijrochiligi qanday ahamiyat kasb etadi?
4. O'zbek xalq musiqasida vohalarga xos qanday farqlar mavjud?

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. O'zbek xalq musiqa merosi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. O'zbek xalq cholg'u musiqasidan namunalar o'rganing.
3. O'zbek xalq musiqasining vohalarga xos xususiyatlariga e'tibor bering.

5-mavzu: 24-29-darslar:

Bastakorlar ijodiyoti yoki sharq xalqlari musiqalaridan namunalar o'rganish.

O'zbek bastakorlik ijodiyoti

Reja:

1. O'zbek bastakorlik san'atining shakllanishi.
2. O'zbek bastakorlik ijodiyoti an'alarining davomiyligi.

Kalit so'zlar: bastakorlik, ijodiyot, san'at, shakl, an'ana, musiqa, ijrochilik, janr.

O'zbek bastakorlik san'ati o'zida beqiyos an'analarni mujassam etgan shuningdek, uzoq (qariyb o'n besh asr) tarixga ega bo'lgan bebaho merosdir. Uzoq va

yaqin o‘tmish shu jumladan, hozirgi zamon bastakorlari tomonidan ijod etilgan dilpazir ohanglar xalqimizning musiqiy tafakkurini yuksalishida beqiyos ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra bastakorlik ijodiyotining shakllanishi bizga ma’lum bo‘lgan tengi yo‘q ijodkor Barbad Marviy (VI asr, taxm. 585-628 yoki 630) va o‘sha davrda yashab ijod etgan o‘z zamonasining buyuk ijodkorlari Romtin (557-620), Naqiso Changiy (549-623) kabi Muvaraunnahrga daxldor bastakorlar bilan bog‘liq ekanligini anglash mumkin. O‘sha paytdan boshlab Ajam musiqalari yaratila boshlangan bo‘lib, mazkur musiqaning nazariy mezonlari qonunlashishi, uslublari va talablarining yagona tizimlanishi kuzatiladi.

O‘rta osiyolik Abdurahmon Surayj (743 vaf. etgan), Abdurahmon Sug‘diy (823 vaf.etgan), Abu Abdullo Rudakiy (860-941), Abu Nasr Forobiy (873-950) kabi darg‘alar ham bastakorlik bobida nomlarini o‘z ona shaharlaridan so‘ng, Eron, Iroq va boshqa arab mamlakatlarining yirik hududlarida chiqarishgan.²² Forobiyning “Kitob-ul musiqa al-kabir” (X asr)idan – Darvishali Changiyning “Tuhfat us-surur” (XVI-XVII asrlar chegarasidagi) kabi qator manbalarda bastakorlik masalalari yoritilgan. Shu o‘rinda Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-advor” (1409-1414 yillar)idagi misralarni keltirish o‘rinli:

“Rost” qil ohangi “Navo”u “Hijoz”,

Tuz yotug‘oni birla shuturg‘uni soz.

Turk surudini tuzuk birla tuz,

Yaxshi ayolg‘u bila ko‘kla qo‘buz.²³

Bastakorlik ijodiyoti – o‘zbek madaniyati va san’atining Uyg‘onish davri jarayonida (XIV – XIX asrning birinchi yarmi) eng yuqori darajaga ko‘tarilganligi musiqaga oid tarixiy asarlarda mualliflar tomonidan muayyan misollar asosida ochib berilgan. Navoiy, Bobur davri (XV- XVI asrlar) musiqiy manbalari shuningdek, “Boburnoma”da Xoja Abdullo Marvarid, Yusuf Xoja Andijoniy, Qul Muhammad Udiy, Ustod Shayxiy Noyi kabi ko‘plab bastakorlarning nomlari zikr etilgan bo‘lib,

²² T.G‘ofurbekov Bastakorlik ijodiyoti T.: 2019. 178-bet

²³ T.G‘ofurbekov Bastakorlik ijodiyoti T.: 2019. 166-bet

XVI-XVII asrlar chegarasiga oid bastakorlik san'ati Darvishali Changiyning "Tuhfat us-surur" nomi bilan yetib kelgan musiqaga oid risolasida shular kabi 340dan ziyod shaxslar mufassal yoritilgan.²⁴ Darvishali Changiy o'zi ham benazir bastakor bo'lgani holda Amir Fatxiy Toshkandiy, Xojai Ja'far Qonuniy, Ali Do'sti Nayi, Mir Mastiy, Mavlono Hasan Kavkabiy, Husayn Oxun, Imomquli Udiy, Zaytun G'ijjakiy, Xoja Abdullo Marvarid, Zaynulobiddin Changiy, Abdulqodir Marog'iy singari ilm va ijodda benazir tafakkur sohiblarining nomlarini alohida hurmat bilan tilga oladi.²⁵

O'zaro ustoz-shogirdlik rishtalari bilan bog'langan Lutfiy-Navoiy-Boburlar merosida aynan bastakorlik san'atiga bag'ishlangan qiziqarli va go'zal misralarni ko'plab uchratish mumkin²⁶:

Lutfiy:

Lutfiy, Hirida qolmadi she'ringg'a mushtari,
Azmi "Hijoz" qilki maqoming "Iroq" emish.

Navoiy:

Ey mug'anniy, tut "Iroq" ohangiyu ko'rguz "Hijoz",
Kim Navoiy xotiri bo'lmish Xurosondin malul.

Navoiy:

So'zda, Navoiy, ne desang chin degil,
"Rost", "Navo" nag'maga tahsin degil.

Bobur:

Bobur, ul gul ko'yida bulbul kibi topding maqom,
Bir "Navo"i "Rost" qil mudoq maqoming borida.

Zamondoshlarimizga yangidan namoyon bo'layotgan **Husayn Boyqaro** "Devoni"da quyidagi misralarni uchratdik²⁷:

Ey Husayniy, el salomat kuyidin bo'lg'ay jalo,
Gar Navoiy yanglig'ohanggi "Hijoz"imni desam.

²⁴ T.G'ofurbekov Bastakorlik ijodiyoti T.: 2019. 171-bet

²⁵ T.G'ofurbekov Bastakorlik ijodiyoti T.: 2019. 171-172-betlar

²⁶ T.G'ofurbekov Bastakorlik ijodiyoti T.: 2019. 168-bet

²⁷ T.G'ofurbekov Bastakorlik ijodiyoti T.: 2019. 169-bet.

Uzoq davrlar osha shakllangan an'analari, muayyan ijrochilik va ijodiy maktablariga ega bo'lgan o'zbek bastakorlik san'atining munosib davomchilari tarixda yuz bergan murakkab jarayonlarda ham o'zlarining serqirra ijodlarini susaytirmagan holda boy an'analarimizni yo'qolib ketmasligi borasida fidokorliklarini namoyon etdilar. XIX-XX asrlarda sermahsul ijodlari bilan milly musiqa san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ona zaminimizning chinakam san'at darg'alari qatorida Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shorahim Shoumarov, Domla Halim Ibodov, Mirzaqosim Hofiz, Madumar Hofiz, Hamroqulqori va Erkaqori, Matyoqub va Matyusuf Xarratovlarning nomlarini alohida ehtirom bilan tilga olish joiz. Bulardan saboq olgan Yunus Rajabiy va To'xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov va Faxriddin Sodiqov, G'anijon Toshmatov va Komiljon Jabborovlardek teran bastakorlik sohiblari va mohir ijrochilar yetishib chiqib an'analar davomiyligini ta'minlashga muvassar bo'ldilar. Nomlari xalqimiz tomonidan hurmat va ehtirom bilan tilga olinadigan yana bir qator o'zbek bastakorlarimiz borki ularning ijodiy meroslari umrbod qadrlanadi. Doni Zokirov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Mamataziz Niyozov, Muhammadjon Mirzayev, Xolxo'ja To'xtasinov, Muxtorjon Murtazoyev, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Komiljon Otaniyozov, Salohiddin To'xtasinov, Sayfi Jalil, G'ulomjon Hojiqulov, Ne'matjon Qulabdullayev, Saidxo'ja Xoldorxo'jayev, Telman Hasanov, Baxtiyor Aliyev, Kamoliddin Raximov, Sherali Jo'rayev, Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Mahmudjon Tojiboyev, Ahmadjon Dadayev, Erkin Ro'zimatov, Akbarali Asqarov, Muhammadjon Maraximov kabi yana ko'plab o'zbek bastakorlarining nomlari o'zlarining ijodiy meroslari bilan milliy musiqamiz tarixi zarvaraqlaridan munosib o'rin egallagan.

Xalq musiqa ijodiyotida nazira, o'xshatma kabi ijodiy uslublar mavjudki ular bastakorlik amaliyotida keng qo'llanilib kelingan. Bu jarayon ma'lum ohanglardan ilhomlanib, bastakorning ijodiy tasavvuri doirasida yangi asarlar yaratilgan. Ijrochilik amaliyotida bu o'ziga xos ijodiy faoliyatga aylanib davrlar osha bastakorlarning ijod an'analaridan munosib o'rin egallagan. Milliy musiqa merosimizdagi mavjud

asarlarning aksariyatida, ularning qaysidur tomonlariga o'xshatma va naziralar bo'rligini kuzatishimiz mumkin.

O'zbek bastakorlarining ana shu ijodiy faoliyatlari negizida cholg'u kuylariga so'z qo'yish orqali uni ashula yo'liga aylantirish, shuningdek ularning ohanglaridan ashula variantlarini ishlash an'anasi ham ana shunday o'zbek bastakorlik ijodiyotining bir qirralaridan hisoblanadi. O'zbek xalq kuylarini ashula variantlarini yaratish bastakorlarning azaliy an'analari. Musiqa merosimizda ham bir qator asarlar ana shunday an'analarga asosida yaratilgan. Bularga yorqin misol tariqasida "Chapandozi Bayot", "Munojot", "Dilxiroj", "Cho'li Iroq", "Hojiniyoz", "Nasrulloi" kabi bir qator asarlarni ko'rsatish mumkin.


Bo'lg'usi maqom sozandasini o'zbek bastakorlari ijodiyotidan ko'plab namunalar o'rganishi ijrochilik mahoratini oshirish, repertuarini boyitish va musiqiy dunyoqarashini kehgaytirishda kutilgan samarani berishi shubhasizdir.




GULJAMOL


Bobur g'azali
G.Toshmatov musiqasi
Y.Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan

$\text{♩} = 120$





ul ik - ki la bi xan-do ni - lur



p Ul ma sal sal ik - ki zul - fi



gul yu zi ning dav-ri - da Gul u-za



og' nar ma - gar ul ik - ki -



ning dav-ro ni dur Sel e mas dur



yer yo - zin tut- qon ko' - zim -



ning yo - shi - dur Ra'd e mas dur ko'k - ka
p *f*



chir - *p* mash-qon ko'n - gul af - g'o ni dur *mf* <



f

Lo - ja - ram
 bo'l-g'ay pa ri cho-nu ha vo yi men ki bi
 Zar-ra yang - - - lig' kim - ni bir
 Xur shed sar - - - gar - do - ni dur Ul pa ri
 ish qi - da Bo-bur ko'ng lim an -
 doq tel - ba - dur Kim, so chi
 zan ji - ri - dur cho - hi zi - han
 zin do - ni dur Kim, so chi zan ji - ri -
 dur cho hi zi - han zin do - ni - dur



Hayo bilan

F.Sodiqov musiqasi
Q.Umarov gijjak cholg'usi
uchun moslashtirgan

M.M. ♩ = 72

The musical score is written for a 3/4 time signature in the key of D major. It consists of ten staves of music. The first two staves include a bass line. The melody is characterized by eighth and sixteenth notes, often grouped with slurs. There are several measures with triplets and some measures with grace notes. The score concludes with a final cadence on the tenth staff.



Dil nolasi

A. Ismoilov musiqasi,
muallif ijrosidan
N. Qodirov notaga olgan

m.m. ♩=115

5

9

15

21





27

34

40

46

52



Mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbek bastakorlik san'atining shakllanishi qaysi davrdan boshlangan.
2. VI asrda yashab ijod etgan Muvaraunnahrga daxldor bastakorlardan kimlarni bilasiz?
3. Bastakorlik ijodiyoti qaysi davrda yuqori pog'onaga chiqqan?
4. O'tmish bastakorlar haqidagi ma'lumotlar qaysi tarixiy manbalarda keltirilgan va ularning mualliflari kim?
5. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining maqom va bastakorlik san'atiga bag'ishlangan misralaridan bilasizmi?

6. Yaqin o'tmish bastakorlik san'ati va bastakorlar to'g'risida qanday ma'lumotlarni bilasiz?

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Qadimgi va hozirgi davr o'zbek bastakorlik san'ati to'g'risida ma'lumotlarni o'zlashtiring.
2. O'zbek bastakorlik ijodiyotidan ijro dasturiga muvofiq namunalar o'rganing.
3. Bastakorlik ijodiyotiga oid asarlar xususiyatiga e'tibor bering.

6-mavzu: 30-dars:

O'rganilgan asarlarni sahnada ijro etishga tayyorlash.

Doimo xalqimiz ardog'ida bo'lib kelgan sahna barcha san'atkor uchun muqaddas makon sanaladi. Shu bois sahna odob, qat'iy intizom va mas'uliyatni talab qiladi. Aynan sahna orqali har bir ijodkor o'zini namoyon etish imkoniyatiga egadir. Shunday ekan san'atkor sahnada ijro etish ko'nikmalarini o'zlashtirish bilan bir qatorda uning madaniyatini yaxshi anglab, mas'uliyatini to'la his etmog'i lozim. Sahnada ijrochining barcha harakatlari tomoshabinning kuzatuvida bo'ladi. Ijrochining ijro mahorati bilan birgalikda uning sahna madaniyati ham unga muvaffaqiyat keltirishi yoki aksincha holat bo'lishi mumkin. Sahnada ijro etayotganda ijrochining vaziyati qulay va tabiiy bo'lishi kerak. Ijro jarayonida yuz ko'rinishlari soxtalikdan xoli hamda asar mazmuniga mos ko'rinishda bo'lmog'i lozim. Tomoshabinlar oldiga tushkun, norozi yoki kekkaygan qiyofada chiqish ularning kayfiyatiga salbiy ta'sir qilishini unutmaslik zarur. Ko'p hollarda sahnaga chiqayotgan ijrochini hayajon bosadi, shunday vaziyatda u o'zini qo'lga ola bilmasa muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Sahnaga chiqish oldidan hayajonni bosish uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

-sahnaga chiqiboq ijroni boshlamaslik;

- o'zi va tomoshabinlarning e'tiborini jamlab olishi uchun ma'lum soniya turish;

- shu paytda ikki-uch marta burundan chuqur nafas olib o'pka, tomoq va tana mushaklarini taranglik holatidan xalos etish;

Sahnaga chiqishdan oldin ijrochi asarlarini yana bir bor eslab olishi shuningdek, texnik vositalarni (agar mavjud bo'lsa) ham ko'zdan kechirib qo'yishi foydadan xoli bo'lmaydi.

Shu o'rinda XI asrda yashab ijod etgan taniqli alloma, Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'zining "Qobusnoma" asarida barcha san'atkorlarning ijrochilik faoliyatiga doir qimmatli fikrlarni eslash joiz. U san'atkorning muxlislar oldida o'zini tutishi, odob-axloqi, mas'uliyati bilan bir qatorda ularga mos ijro repertuarini tanlash va har bir davraga xos ijodiy yondoshuv orqali turli yoshdagi hamda turli xil ta'bga ega bo'lgan kishilarining barchasini o'zlariga mos ravishdagi ijrolar bilan bahramand etish zarurligini ta'kidlaydi. Jumladan "Qobusnoma"ning Hofiz va sozandalik zikrida deb nomlangan *o'ttiz oltinchi bobida* shunday yozadi: "Agar hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamisha pok, mutayyab (xushro'y) va xush zabon bo'lg'il va o'z ishingga mashg'ul bo'lg'il, yaramas xulq va qo'pol bashara bo'lmag'il. Hamma vaqt og'ir yo'l (maqom, ohang)larni chertmag'il, chunki barcha mashq va ohangni bir xilda chertish shart ermasdur, nedinkim, odamlarning barchasi bir xilda bo'lg'on ermaslar, ta'blari ham bir-birig'a muvofiq ermas, ya'ni xalq muxtalif (har xil)durlar. Shul vajdin bu fanning ustodlari san'atga shundog' tartib bermishlarki, avval podshohlar majlisi uchun xisravona dostonlar tuzmishlar, undin so'ng vaznsiz bir og'ir yo'l tuzmishlarki, uni ikki surud (ashula, qo'shiq) bila aytsa bo'lur va unga og'ir yo'l deb ot qo'ymishlar. Bu yo'l qarilarning va xiradmandlarning ta'biga mos kelmish erdi va bul yo'lni mazkur qavm uchun tuzdilar. Undin so'ng ersa ko'rdilarki, xalqning hammasi qarilar va xiradmandlar ermasdurlar. Shundin keyin lojaram yigitlar uchun bir yo'l tuzatdilar. Undin keyin yengilroq vaznlik she'rlar uchun yengil yo'llar tuzib, ularga hafif (yengil) deb ot qo'ydilar, og'ir yo'ldan so'ng bu hafif yo'lni chertdilar. Mutriblar (sozanda) qarilar ham, yigitlar ham undan bahramand bo'lsinlar, dedilar. Undin keyin yosh o'g'lonlar va latif (yumshoq, muloyim, go'zal) ta'b odamlarning ba'zilar bebahra qoldilar. Mazkur qavm uchun tarona aytmoqni patdo qildilar, toki mazkur qavm ham bahra va rohat topg'aylar, chunki barcha vaznlarning orasida taronadin latifroq vazn yo'qdur. Demak, bularning barchasini birdek qilib chertmag'il va bir xilda kuylamag'il, mening bayon

qilg'onimdek chertib aytg'il. Bas, barcha ulus sening sozingdin, ovozingdin bahramand bo'lsin. ”

Darhaqiqat, Kaykovusning yuqoridagi o'g'itlari hozirgi zamon ijrochiligiga ham to'la mos kelgani bois asrlar osha o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Zamonaviy ijrochilikda ham har bir san'atkor muxlislar oldida o'z san'atini namoyish etish chog'ida Kaykovusning o'g'itlarini yodda saqlashi hamda unga amal qilishi lozim.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Sahnada ijro etish chog'ida nimalarga e'tibor qaratilishi lozim ?
2. Hayajonni bosish uchun qanday amallar bajarish tavsiya etiladi?
3. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida konsert ijrochiligiga oid qanday fikrlar bayon qilingan?

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Ijro dasturingizdagi asarlarni sahnada ijro etish tartib-qoidalariga muvofiq ijro etishni mashq qiling.
2. Asarlarning badiiy talqiniga e'tibor qarating.

Mustaqil ta'lim uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atining yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
2. Madaniyat va san'at sohasiga tegishli hukumat Qarorlari, Farmon va Farmoyishlarini shuningdek, musiqa ta'limiga oid me'yoriy hujjatlarni muntazam o'rganib boring.
3. Turkum musiqiy asarlar deganda nimani tushunasiz?
4. Shashmaqomda turkum asarlar qanday xususiyatlarga ega?
5. Shashmaqomning Mushkilot bo'limini turkumli o'zlashtirish qanday ma'noni anglatadi?
6. Shashmaqomning Mushkilot bo'limidagi asarlarni turkumli o'rganish imkoniyatlarini "Yon daftar"ingizga yozib oling va puxta o'zlashtiring.
7. Shashmaqomning Mushkilot bo'limidagi asarlar qanday tartibda shartli turkumlanadi?
8. Shashmaqomning Mushkilot bo'limi Tasnif asarlar turkumi qanday xususiyatlarga ega?
9. Tasnif asarlar turkumi ijrosini o'zlashtiring.
10. Tarje' asarlar turkumi qanday xususiyatlarga ega?
11. Tarje' asarlar turkumini o'zlashtiring.
12. Gardun asarlar turkumi qanday doira usuliga ega?
13. Gardun asarlar turkumi ijrosini o'zlashtiring.
14. Muxammas asarlar turkumini tashkil etuvchi asarlar Shashmaqomda nechta?
15. Shashmaqomning har bir maqomidagi muxammas asarlar ijrosini o'zlashtiring.
16. Saqil asarlar turkumiga qanday xususiyatlar xos?
17. Saqil asarlar turkumi ijrosini o'zlashtiring.
18. Shashmaqomning Nasr bo'limi turkum asarlari haqida nimalarni bilasiz?
19. Shashmaqomning birinchi guruh turkum asarlariga qaysi toifadagi ashulalar kiradi?
20. Shashmaqomning ikkinchi guruh turkum asarlarini qanday ashulalar tashkil qiladi?

21. Saraxbor ashulalar turkumining musiqiy ijrosini o'zlashtiring.
22. Talqin ashulalar turkumining musiqiy ijrosini o'zlashtiring.
23. Nasr ashulalar turkumining musiqiy ijrosini o'zlashtiring.
24. Shashmaqomning Mo'g'ulcha turkum ashulalari qanday xususiyatlarga ega?
25. "Mo'g'ulchai Buzruk" va "Mo'g'ulchai Segoh" ashula turukmlarining ijrosini o'zlashtiring.
26. Savt turkum ashulariga qanday xususiyatlar xos?
27. Shashmaqomining "Savti Sarvinoz", "Savti Navo" va "Savti Chorgoh" ashulalari ijrosini o'zlashtiring.
28. Mustazod turkum ashulalari qanday xususiyatlarga ega.
29. "Mustazodi Navo" ashulasining turkum ijrosini o'zlashtiring.
30. Shashmaqomning Ufor ashula qismlari haqida nimalarni bilasiz?
31. Shashmaqomning Mushkilot bo'limi asarlari notasini g'ijjak ijrochiligi uchun moslashtiring va electron hamda qog'oz variantda jamlang.
32. Xorazm maqomlari Chertim yo'li asarlarini nota vositasida o'rganing.
33. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari asarlarini nota vositasida o'zlashtiring.
34. Xorazm maqomi cholg'u ijrochiligining Chertim yo'li qanday xususiyatlarga ega?
35. Xorazm maqomlari Aytim yo'llariga xos xususiyatlarni bilasizmi?
36. Xorazm maqomlari cholg'u ijrochiligida cholg'ulashtirish masalasi qanday xususiyatlardan iborat?
37. Xorazm maqomlari cholg'u ijrochiligi va Shashmaqom cholg'u ijrochiligi uyg'un jihatlari nimalardan iborat?
38. Xorazm maqomlari cholg'u ijrochiligi qanday asoslarda rivojlantirilib boriladi?
39. Xorazm maqomlari cholg'u ijrochiligi xususiyatlarini o'rganing.
40. Tarje'i Rost cholg'u ijrochiligini o'zlashtiring.
41. Maqomi Rost (Saraxbor) ashula kuyi ijrosini o'zlashtiring.
42. Xorazm maqomlari cholg'u ijrochiligida g'ijjak cholg'usi ahamiyatini bilib oling.
43. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarini qaysi maqomlar tashkil qiladi?

44. Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari qanday yaratilgan?
45. Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari cholgʻu ijrochiligi qanday xususiyatlarga ega?
46. Mazkur maqom yoʻllari cholgʻu ijrochiligi uslubida nimalar koʻzga tashlanadi?
47. Ushbu maqom yoʻllari cholgʻu ijrochiligida gʻijjak cholgʻusi ustoz sozandalarining yoʻllari haqida nimalarni bilasiz?
48. Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari tovushqatorlarini oʻzlashtiring.
49. Mazkur maqom yoʻllari tovushqatorlari asosida texnik mashqlar ijro eting.
50. Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari cholgʻu ijrochiligi uslublariga xos xususiyatlarini oʻrganing.
51. Ustoz sozanda Gʻanijon Toshmatov toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni eslab qoling.
52. Oʻzbek xalq musiqa merosini oʻrganishdan koʻzlangan maqsad nimalardan iborat?
53. Oʻzbek xalq musiqasi tarkibini qanaqa asarlar tashkil etadi?
54. Oʻzbek xalq musiqasida cholgʻu ijrochiligi qanday ahamiyat kasb etadi?
55. Oʻzbek xalq musiqasida vohalarga xos qanday farqlar mavjud?
56. Oʻzbek bastakorlik sanʼatining shakllanishi qaysi davrdan boshlangan.
57. VI asrda yashab ijod etgan Muvaraunnahrga daxldor bastakorlardan kimlarni bilasiz?
58. Bastakorlik ijodiyoti qaysi davrda yuqori pogʻonaga chiqqan?
59. Oʻtmish bastakorlar haqidagi maʼlumotlar qaysi tarixiy manbalarda keltirilgan va ularning mualliflari kim?
60. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining maqom va bastakorlik sanʼatiga bagʻishlangan misralaridan bilasizmi?
61. Yaqin oʻtmish bastakorlik sanʼati va bastakorlar toʻgʻrisida qanday maʼlumotlarni bilasiz?

GLOSSARIY

Ushbu glossariyda barcha musiqiy ijrochilik bo'yicha qo'llaniladigan atamalarning qisqacha izohi keltirilgan.

Abdurahmonbegi – Abdurahmonbek shaxs nomi bilan bog'liq ashula va musiqa yo'li.

Avj – kuy rivojlanishining eng yuqori nuqtasi, kuy xarakatining muayyan bo'limi.

An'anaviy xanandalik ijro uslublari – SHarq an'anaviy ashula ijrochiigida uch asosiy ijro uslublari farqlanadi: 1) binigiy - dimog' ovoz bilan kuylash; 2) guligiy – tamoqdan chiqariladigan ovoz bilan kuylash; 3) ishkamiy – ko'krak-qorindan chiqariladigan ovoz bilan kuylash. Hofiz mazkur uchala turni ovoza ega bo'lishi va ular asosida kuylashi mumkin.

Ashula – keng tarqalgan vokal (kuylash) janri va shakli bo'lib, she'riy va musiqiy obrazlar bir-biri bilan uyg'un gavdalanadi. An'anaviy ashular katta ashula, maqom aytishlari, ashulalar va xalq qo'shiqlaridan iborat.

Aytim yo'li – Xorazm maqomlarida ashula bo'limining nomi. Ko'proq xalq ijrochilari tomonidan qo'llaniladigan ibora.

Bayot – turkiy qabilalardan birining nomi. Qadimda mustaqil maqom yo'li. Shashmaqom tizimida Navo maqomining sho'basi.

Bam – yuqori, cholg'u asboblaridagi yuqori tor.

Baqiya – 90 sentga teng yarim tonlik interval. yevropa musiqa nazariyasida limma deyiladi.

Bansir – nomsiz barmoq va uning vositasida hosil qilinadigan parda, asosiy tonga nisbatan katta tersiya intervali.

Bozgo'y – cholg'u yo'llarida takrorlanuvchi kuy bo'lagi.

Buzruk – ulug'vor ma'nosida. Muayyan maqom va uning asosini tashkil qiluvchi lad tizimining nomi. Shashmaqomda birinchi, Xorazm maqomlarida ikkinchi maqom.

Vatad - ilmi iyqo va aruz birligi. Bir qisqa bo'g'in ketidan cho'ziq bo'g'in (yig'ilgan vatad), bir cho'ziq bo'g'in ketidan bir qisqa (ajralgan vatad) bo'g'in kelishi.

Vusta – o'rta barmoq va uning vositasida hosil qilinadigan intervallar. Asosiy pardaga nisbatan kichik tersiya intervali.

Gardun – falak gardishi. Maqomlar cholg'u bo'limining tarkibiy qismi va uning asosida doira usulining nomi.

Gun – taq - Xorazm maqomlarida usullarni ifoda qilish uchun ishlatiladigan bo'g'inlar birikmasi.

Daromad – kuy shaklining boshlang'ich qismi.

Diapazon [yunon. diapason (chordon) – hamma (torlar)aro] – ovozning eng pastidan - eng balandigacha bo'lgan tovushlar hajmi.

Dinamika (yunon. dinamis – kuch) - tovushlarning sadolanish

kuchi bilan bog'liq bo'lgan jarayon majmui. Musiqaning eng muhim ifoda vositalaridan biri. D. tuslar (forte, piano, cresc., diminuendo va b.)ni qo'llash musiqaning mazmuni va badiiy mohiyatini teranlashtiradi.

Doston – cholg'u asboblarida barmoq o'rni va ushbu joyda hosil qilinadigan parda.

Dastgoh – Eron maqomlari dastgohlar deb yuritiladi.

Dugoh – maqom va uning asosini tashkil qiluvchi lad tizimining nomi.

Dunasr – kuy shaklining tarkibiy bo'lagi. Asosiy miyonxatdan keyin keladi.

Fermata (ital. fermata – to'xtash) – tovush, ma'lum nota yoki pauzani cho'zish belgisi.

Sabo – tong shamoli. Rost va Segoh maqomlaridagi sho'ba nomi.

Savt – tovush. Shashmaqomning ikkinchi guruh sho'bası. Mazkur yetakchi qismi va uning asosidagi doira usulining nomi.

Samoi – Dugoh maqomi cholg'u bo'limining qismi va uning negizidagi doyra usulining nomi.

Saraxbor – Shashmaqom ashula bo'limlarining boshlang'ich va yetakchi qismi.

Saqil – og'ir, vazmin. Cholg'u bo'limining qismi va uning doyra usulining nomi.

Segoh – maqom va uning negizidagi lad tizimining nomi.

Suporish – maqom qismlari shakllanishida yakunlovchi bo'lakcha. Suporishlar yordamida bir qismdan ikkinchisiga bevosita o'tiladi ham.

Suvora – Xorazm maqomlarining tarkibiy qismi va uning negizidagi doira usulining nomi.

Soqiynoma – Shashmaqomning tarkibiy qismi va uning asosidagi doira usulining nomi.

Taniniy – sekunda intervali.

Tarje' – takrorlangan. Maqomlar cholg'u bo'limining tarkibiy qismi va uning asosidagi doira usulining nomi.

Tarona – kuy. Maqomlarda asosiy qismlardan kelib chiqadigan shoxobchalarning nomi.

Talqin – sho'ba nomi. Mazkur sho'baning bosh qismi va uning asosidagi doyra usulining nomi.

Talqincha – Savt va mo'g'ilcha sho'balarining tarkibiy qismi va doyra usulining nomi.

Tetraxord - To'rt pog'onali jins.

Ufor – maqom sho'balarining yakunlovchi qismi va undagi doyra usulining nomi.

Fazla – 24 sentlik kichik interval. yevropa musiqa ilmida komma deyiladi.

Jam – jinslarning qo'shiluvidan hosil bo'ladigan lad birikmasi. Jinslar bir oktava hajmida bo'ladi.

Jins – dastlabki lad birikmalari.

Kantilena (it. canto – kuylash) – Kuyning va umuman

musiqaning kuychan, yoqimli, ravon ijrosi; izchil legato usulida

tuzilgan tovushlar yo'nalishi. Unli tovushlarni tekis yo'naltirish, aniq

talaffuz etish evaziga erishiladi.

Zarbul fatx –fatx-yovvoyi kabutar, musicha. Maqomlarning tarkibiy qismi va uning asosidagi usul nomi.

Zir – past, cholgʻuasboblaridagi pastki tor.

Zul arba – kvarta.

Zul kul – oktava.

Zul kul murratayn – kvintdetsima, ikki oktava.

Zul xams – kvinta.

Ijrochilik texnikasi: Barmoqlar harakati, sayqal va bezaklarni oʻz joyida ishlata bilish, zarblarni toʻgʻri tanlash.

Ijrochilik holati: cholgʻu sozini qanday ushlash, uni chalishga hozirlash va chalish uchun (butun tana, bosh, qoʻllar, oyoqlar,) tayyor boʻlish tushuniladi.

Ilmu taʼlif – musiqa tovushlarini balandlik nuqtai nazaridan oʻrganuvchi fan. Garmoniya va kompozitsiya tushunchasiga mos keladi.

Iroq – maqom va uning asosini tashkil qiluvchi lad tizimining nomi.

Lahn – kuy.

Masna – cholgʻularning ikkinchi tori.

Maslas – cholgʻularning uchinchi tori.

Manzum – tuzilgan. Xorazm maqomlarida ashula boʻlimining nomi.

Mansur – gʻolib. Xorazm maqomlarida cholgʻu boʻlimining nomi.

Maqom – joy, istiqomat oʻrni. Lad va uning asosida vujudga keluvchi asarlar. Musiqa janri.

Miyonxat – kuy shaklining oʻrta boʻlimi.

Monodiya – yakka ovozlik musiqa uslubi.

Mujannab – qoʻshni parda. 180 sentga teng kichik butun pardaning nomi.

Mutloq – ochiq tor.

Musiqiy asar:

Maʼlum bir musiqiy asar B.Asafev taʼbiri bilan aytganda uch xil koʻrinishda mavjud boʻladi.

1. Bu nota matni, yaʼni yozuv asosida.

2. Ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda.

3. Tinglovchining hayotiy tajribasi va badiiy obrazlarning u tomonidan qabul qilinishi natijasida asarni haqiqiy ijro jarayoni amalga oshiriladi.

Musiqiy ifoda vositalari: tovush hosil qilish va uning akustik asoslari, musiqiy tovush, sozning tozaligi (intonatsiya), tovush tusi (tembr), nola (vibrato), usul (ritm), oʻlchov, surʼat, agogika, artikulyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

Musiqiy xotira - inson ruhiy jarayonining muhim jihatlaridan biri yod olish va xotirada saqlash bo'lib, uning mohiyati esda saqlab qolish va zarur paytda o'sha xotiradagilarni ma'lum bir vosita orqali Yuzaga chiqarish-namayon qilish hisoblanadi.

Muxammas – cholg'u bo'limining tarkibiy qismi va uning asosini tashkil qiluvchi.

Muxammasi Ushshoq – Rost maqomi cholg'u bo'limining tarkibiy qismi.

Mo'g'ilcha – Shashmaqomning tarkibiy qismi va uning asosidagi usul nomi.

Navo – kuy. Maqom va uning asosidagi lad tizimining nomi.

Navro'zi Xoro – nasr yo'llaridan. Segoh maqomining sho'basi.

Namud – ko'rinish. Maqom yo'llarining avjlariga boshqa qism yoki o'zga maqomlardan kiritiladigan kuy bo'laklari.

Nasr – g'alaba. Maqomlarning asosiy sho'balaridan biri. Mazkur sho'baning yetakchi qismi va uning asosidagi doyra usulining nomi.

Nasri Ajam - Segoh maqomining sho'basi.

Nasrulloiy – Buzruk maqomining sho'basi.

Nasri Ushshoq – Rost maqomining sho'basi.

Naqsh – Xorazm maqomlarining tarkibiy qismi va uning negizidagi doyra usulining nomi.

Nag'ma – muayyan balandlik va cho'ziqlikka ega bo'lgan musiqa tovushi, ton.

Panjgoh – Rost maqomining tarkibiy qismi. Xorazm maqomlarida mustaqil maqom sifatida ham yuritiladi.

Parda – cholg'u asboblarda barmoq bosilib tovush chiqaradigan joy va undan hosil bo'ladigan tovush. Lad tuzilishining muayyan birligi.

Peshrav – oldinga intiluvchan. Kuy rivojlanish uslubi. Maqomlarning cholg'u bo'limi tarkibiy qismi va uning negizidagi doyra usulining nomi.

Qo'shiq – vokal musiqaning keng tarqalgan janri, unda musiqiy -she'riy mazmun uyg'unlashadi. Q. she'rlari bir necha bandli va odatdanaqoratli bo'ladi. Q. kuyi xalqqa, bastakor yoki kompozitorlarga mansub bo'lib, vatanparvarlik, marosim, mehnat, ishqiy-lirik, qahramonlik mavzularini madh etadi.

Rax – yo'l. Kuy yo'li.

Raxv–Xromatik jinslar turi.

Ra'sim – engarmonik jinslar turi.

Rost – Maqom va uning asosidagi lad tizimining nomi. Xorazm maqomlarida birinchi, Shashmaqomda ikkinchi bo'lib keladi.

Sabab – ilmi i'qo va aruz birligi. Bir cho'ziq (yengil sabab) yoki bir qisqa (og'ir sabab) bo'g'in.

Sabboba – ko'rsatkich barmoq va uning vositasida hosil qilinadigan tovush. Asosiy pardaga nisbatan sekunda intervali.

Usul sezgisi musiqiy asarlarning tuzilishida eng asosiy omillardan biri bo'lib, ijrochilik jarayonida katta ahamiyatga ega. U inson organizmi bilan tabiatdagi o'zaro o'lchov va ritmik bog'liqlik hamda mutanosiblikni ifodalaydi. Bunda insonning Yurak urishi, nafas olishi, qadam tashlashi, hissiy (emotsional) harakat sezgilari tabiatining barcha jihatlarini bilan bog'liqdir.

Fosila – ilmi i'qo va aruz birligi. Ikki qisqa bir cho'ziq bo'g'in kichik fosila, uch qisqa bir cho'ziq bo'g'in katta fosila deyiladi.

Had – chegara. Udning beshinchi tori.

Hang – ohang. Bir bo'g'inga ikki va undan ortiq tovushlarni umumlashtirib aytish.

Xat – bir bayt she'r bilan aytiladigan kuy bo'lagi.

Xona – cholg'u qismlarda mazmunan yakunlangan kuy bo'lagi. She'riyatdagi bayt ma'nosiga mos keladi.

Xusravoniy – shohona kuy yo'llari. Qadimiy musiqa janrlaridan biri.

Chertim kuyi – Xorazm maqomlaridagi cholg'u bo'limining nomi.

Chorgoh – Dugoh maqomining sho'basi.

Shashmaqom – olti maqom tizimi, o'zbek va tojik musiqasida maqomlarning bizgacha yetib kelgan tarixiy shakli.

Sho'ba – bo'lim. Maqom tarkibidagi asosiy qism va ulardan kelib chiqadigan shoxobchalardan tashkil topuvchi bo'lim.

Qaviy – diatonik jins.

Qavl – ashula janrining qadimiy turlari.

Qashqarcha –Savt va Mo'g'ilcha sho'balarning tarkibiy qismi va doira usulining nomi.

Ekvidistant – uzunlikni o'lchash vositasi bilan pardalar hosil qilish uslubi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // "Xalq so'zi" gazetasi 2017-yil 18-noyabr soni.
2. Akbarov I, Kon.Yu. O'zbek xalq cholg'u musiqasi. // O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Yunus Rajabiy. Tom III.-T.: O'zdavbadiiynashr.1959.
3. Rajabiy.Yu. O'zbek xalq musiqasi I, II, III, IV, V, VI tomlar. T., 1959
4. Alimbekov K., Ahmedov M. O'zbekiston xalq sozandalari.-T. : O'zdavbadiiynashr.1959.
5. Петросянц А.Школа игре гиджака.-Т., 1960.
6. Felisiant R, Aliev S. G'ijjak darsligi.-Т., 1961.
7. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir.-Т.: O'zdavbadiiynashr.1963.
8. Rajabiy.Yu. Shashmaqom I, II, III, IV, V, VI tomlar. T., 1975
9. Гафурбеков Т. Фолклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчество.-Т.,1984.
10. Матякубов О. Фараби об основных музыки Востока.-Т.: "Фан".1986.
11. Akbarov I. Musiqa lug'ati. -Т. : "O'qituvchi". 1987.
12. Ahmadiy. Sozlar munozarasi. // Muborak maktublar. Matnlar.- Т., 1987.
13. Музыкальный энциклопедический словарь. Главный редактор Г.В.Келбдыщ.- М.: "Советская энциклопедия". 1990.
14. Петросянц А. Инструментоведение.-Т., 1990.
15. Nazarov A. Farobiy va ibn Sino musiqiy ritmika xususida (mumtoz iyqo' nazariyasi).-Т., 1995.
16. Toshmuhammedov M. G'ijjak darsligi.-Т., 1995.
17. Matyakubov O. Maqomot.-Т, 2004.
18. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari.-Т. : "Yangi asr avlodi". 2004.
19. Azizboev S. An'anaviy g'ijjak ijrochiligi.-Т., 2005.
20. Rajabov I. Maqomlar.-Т.: "San'at". 2006.

21. Ибрагимов О. Фергана-Ташкентские макомы.-Т.: "MEDIA LAND" .2006.
22. Qosimov R. An'anaviy ijrochilik.-Т., 2007.
23. Pedagogik atamalar lug'ati. prof. R.Jo'raev va boshq.- Т.: "Fan". 2008.
24. Suyunova Z. G'anijon Toshmatov.-Т., 2009.
25. Nazirov Q. G'ijjakda o'zbek milliy kuylarini o'zlashtirish.-Т., 2011.
26. Nazirov Q. G'ijjak sinfi darsligi.-Т., 2013.
27. Umarov Q. An'anaviy g'ijjak ijrochiligi.-Т., 2014.
28. Mamadaliev F. Intizoring eslagil...-Т., 2014.
29. Matyakubov O. O'zbek klassik musiqasi. 1-2-kitoblar.-Т.: "Yangi asr avlodi". 2015.
30. Qodirov N. G'ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar.-Т.: "Musiqqa". 2016.
31. G'ulom Zafariy. Asarlar.-Т.: "Info kapital grup" 2018.
32. G'ofurbekov T. Bastakorlik ijodiyoti T.: 2019.
33. Boltayev R. (to'plovchi va notaga oluvchi). Xorazm Urfiy maqomlari (Toshkent-2021; "ADAST POLIGRAF")
34. Qodirov N. Maqom cholg'u ijrochiligi (G'.Toshmatov ijodi misolida).-Т.: "Musiqqa". 2021.



ISBN 978-9910-9052-8-5



9 789910 905285